# SUN’IY INTELLEKTNING INGLIZ TILINI O‘RGANISHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

**Rustamova Nafosat Alijon qizi**
GLDPI Tillarni o‘qitish fakulteti
Xorijiy til va adabiyot yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
rustamovanafosat@gmail.

**Annotatsiya**: Mazkur maqola orqali sun’iy intelekt (SI) texnologiyalarining ingliz tilini o‘rganishdagi roli tahlil qilinadi.Maqolada zamonaviy ta’limda SI vositalaridan foydalanishning afzalliklari, ularning o‘quvchilarga ko‘rsatgan ijobiy ta’siri hamda ayrim salbiy jihatlari yoritib beriladi, shuningdek, sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan ilovalar misolida ingliz tili o‘qitishning yangi metodlari ham tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Sun’iy intellekt, ingliz tili, ta’lim, texnologiya, interaktiv o‘rganish, raqamli ta’lim.

Hozirgi globallashuv jarayonida ta’lim tizimi boshqa sohalarga nisbatan jadallik bilan rivojlanmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalarining paydo bo‘lishi o‘quv jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda. Ingliz tili bugungi kunda xalqaro aloqa, biznes, fan va madaniyat tili sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, uni o‘rganish barcha yoshlar va kattalar uchun ham anchagina samarali bo’lib bormoqda. Buning natijasida bu tilni o‘rganishda yangi metodlar zarurati paydo bo‘lmoqda.

Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellekt asosidagi dasturlar ingliz tili o‘qitishning eng samarali vositalaridan biriga aylanib bormoqda. Maqolaning maqsadi - sun’iy intellekt texnologiyalarining ingliz tilini o‘rganishdagi o‘rni, afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish hamda bu vositalarning ta’lim tizimidagi yutuqlarini yoritishdir.

Sun’iy intellekt - bu inson aql-idroki faoliyatini taqlid qiluvchi dasturiy tizimdir. U o‘rganish, tahlil qilish va qaror qabul qilish imkoniyatiga ega. Ta’lim sohasida AI texnologiyalari o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, individual dars rejalarini tuzish, grammatik xatolarni avtomatik tuzatish va talaffuzni yaxshilashda keng qo‘llanmoqda. Bunday turdagi zamonaviy texnologiyalar asosida hattoki yoshlar ham mustaqil muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Masalan, Duolingo, Grammarly, ChatGPT, Elsa Speak kabi platformalar o‘quvchilarga ingliz tilini mustaqil o‘rganishda katta yordam bermoqda. Bu dasturlar o‘quvchining bilim darajasiga mos mashqlarni taklif qiladi va natijalarni avtomatik tahlil qiladi. Hozirda bunday ilovalarga talab oshib bormoqda, negaki hamma uyda o‘tirgan holatda internet platformalaridan o‘zlariga tegishli ma’lumotlar va bilimlarni olishyapti. Hozirgi zamon talabidan kelib chiqib yondashadigan bo‘lsak, sun’iy intelektning hayotimiz davomida bir qancha afzallik tomonlari bor. Ularni bir nechtasi taqdim etishim mumkin.

Birinchidan, AI individual yondashuvni ta’minlaydi. Har bir o‘quvchining xatolarini, kuchli va zaif tomonlarini, va aynan qanday soha ularga mos yoki mos emasligini bolaning fikrlashi yoki qobiliyatiga qarab aniqlab, shunga mos o‘quv materiali va ularni yoshiga mos metodikalar orqali ma’lumot beradi. Ikkinchidan, AI real muloqot muhitini yaratadi. Masalan, ChatGPT kabi tizimlar orqali o‘quvchilar ingliz tilida suhbatlashish, yozish va fikr bildirish mashqlarini bajarishlari mumkin. Buni qulay taraflaridan biri mashqlardagi xatolarini tez aniqlashi va muhim maslahatlarni berishida. Uchinchidan, motivatsiya va qiziqishni oshiradi. O‘quvchilar interaktiv topshiriqlar, ovozli testlar va gamifikatsiya elementlari orqali tilni zavq bilan o‘rganadilar. Bunday metodika maktablarda ham ko‘p qo‘llaniladi. Masalan, o‘quvchilarni darsdan zerikishini oldini olish uchun dars mobaynida turli xil o‘yinlar va bolalarni rag‘batlantirish, ularni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini orttirish uchun turli sovg‘a va kartochkalar berishadi.

To‘rtinchidan, AI o‘qituvchilarga yordamchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. U dars rejalashtirish, baholash va tahlil jarayonlarini avtomatlashtiradi, bu esa o‘qituvchiga ko‘proq vaqtni o‘quvchilarga bag‘ishlash imkonini beradi. Albatta har narsaning ham ikkinchi tomoni bo‘lgani kabi bunday texnologiyalarning ham afzalliklari bilan birga kamchiliklari ham yo‘q emas. Jumladan: - o‘quvchilar sun’iy intellektga haddan ortiq tayanib, mustaqil fikrlash va ijodkorlik ko‘nikmalarini yo‘qotish xavfi mavjud. Chunki hozirgi kunda Chatgpt judayam ommalashib ketgan va undan xohlagan mavzuda malumot olishingiz mumkin. Qanday turdagi savol bulishidan qat’iy nazar hammasini aniq faktlar bilan izohlab bera oladi. - ma’lumotlar xavfsizligi masalasi dolzarbdir. Ba’zi AI ilovalari foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini saqlab, tahlil qiladi. Bu judayam dolzarb masalaga aylanib bormoqda, sababi dunyo ahlosining ko‘p qismi sun’iy intelektni foydalanuvchisiga aylanib ulgurgan, ammo mutaxassislarning ta’kidlashicha sun’iy intellekt vaqti kelib insonni shaxsiy ma’lumotlaridan o‘ziga qarshi foydalanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt ingliz tilini o‘rganishda zamonaviy, interaktiv va samarali vosita sifatida katta imkoniyatlarni taqdim etmoqda. U o‘quvchilarga mustaqil o‘rganish, xatolarni tahlil qilish va real muloqot muhitida tilni amaliy qo‘llash imkonini beradi. Biroq, bu texnologiyalardan foydalanishda muvozanatni saqlash muhim - sun’iy intellekt o‘qituvchini emas, balki o‘rganish jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida qaralishi lozim. Va undan foydalanuvchi har bir kishi o‘zini aniq maqsadini bilib usha yo‘nalishdagina foydalanishi kerak. Sun’iy intellekt bu bizga ilm olishning samaraliroq yo‘lini ochib beruvchi vosita, bizni vazifalarimizni bajarib beruvchi emas. Bundan tashqari, kelajakda AI asosidagi ta’lim platformalarini milliy ta’lim tizimiga moslashtirish orqali ingliz tili o‘qitish sifatini yanada oshirish imkoni ham yo‘q emas.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Oxford University Press. Artificial Intelligence in Education. London, 2023.
2. Duolingo Research Report. AI and Language Learning Trends. 2024.
3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Raqamli ta’lim konsepsiyasi. Toshkent, 2025.
4. Cambridge University Press. (2022). Digital pedagogy and language learning. Cambridge, UK: Cambridge University Press.